

INNOVATION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

THE INNOVATION ECONOMY

Electronic Scientific and Practical Journal



2025 MAXSUS SON

INNOVATION IQTISODIYOT: MUAMMO, TAHLIL VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI 2-XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN
materiallari asosida tayyorlangan



@QMI_Instituti



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225 - uy



www.kstu.uz
www.ojs.qmii.uz

Meva-sabzavot kooperatsiyalarini tashkil etishdagi iqtisodiy imkoniyatlar	247
<i>Fayziyeva Shirin Shodmonovna</i>	
Anor yetishtirishda ishlab chiqarish samaradorligi tushunchasi, turlari va ko'rsatkichlari	254
<i>Abbos Jumanazarovich Irgashev</i>	
Anor yetishtirish samaradorligiga ta'sir qiluvchi omillar	261
<i>Abbos Jumanazarovich Irgashev</i>	
Минтақа саноат корхоналарида иқтисодий ўсишга таъсир этувчи омиллар таҳлили	266
<i>Рахматулла Худирович Эргашев</i>	
Мintaqaviy oziq-ovqat xavfsizligini o'lchish va baholashning metodolik asoslari	274
<i>Kusainov X.X., Kusainova L.I.</i>	
Hududlarda "yashil iqtisodiyot"ni barqaror rivojlantirishning innovatsion yondashuvlari	286
<i>Xo'janova Gulshoda Otamurodovna</i>	
Kambag'allikni qisqartirishda aholi umumiy	291
daromadlarining ahamiyati	291
<i>Azimova Hulkar Egamberdiyevna</i>	
O'zbekiston sanoatiga ekologik texnologiyalarni joriy qilishning iqtisodiy samaradorligi	297
<i>Rustamova Sarvinov Azizbek qizi</i>	
Cho'l-yaylov chorvachiligini barqaror rivojlantirishda innovatsion texnologiyalar: iqtisodiy va tibbiy ahamiyati	300
<i>Tangirov Abduxoliq Egamovich</i>	
Qayta tiklanadigan energiya manbalaridan samarali foydalanishni rivojlantirish masalalari	307
<i>Olimova Nodira Xamrakulovna</i>	
O'zbekiston sharoitida yashil iqtisodiyotni rivojlantirish va muqobil energiya manbalarini joriy etishning o'ziga xos xususiyatlari	312
<i>Abdumutalov Shohjahon Bahodir o'g'li</i>	
Milliy sanoat hududlarini yaratishda xalqaro tajribaning qo'llanilishi va zamonaviy yechimlar	318
<i>Ortiqov Avazbek Bahromjon o'g'li</i>	
O'zbekiston va Yevrosiyo iqtisodiy ittifoqi: rivojlanish istiqbollari va mumkin bo'lgan tahdidlar	323
<i>Djuraboyeva Diyora Muzaffar qizi</i>	
Qishloq xo'jaligi mahsulotlari raqobatbardoshligini ta'minlashda klaster tizimini joriy qilish mexanizmlari	328
<i>Eshev Alibek Sabirovich, Qurbonova Zarina Xusan qizi</i>	
<i>Tursunova Durshoda Nizomiddin qizi, Davronova Feruza Shavkat qizi</i>	
Surxondaryo viloyatida 2010-2024 yillardagi sanoat mahsulotining iqtisodiy statistik tahlili	335
<i>Ismoilov Davronbek Ilxomjon o'g'li</i>	
Korxonalarda ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy asoslari	341
<i>Sayyora Nasimovna Xamrayeva, Muxammadjon Toshtemirovich Uzaqov</i>	
Mintaqada ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishning nazariy-uslubiy asoslari	346
<i>Alimova Munisa Yulchiyevna, Normurodova Munisa Ilhom qizi</i>	
Mintaqada mehnatga layoqatli yoshdan katta aholiga xizmat ko'rsatish sifatini baholash	350
<i>Ochilova Nargiza Akramovna</i>	
Mintaqa xizmat ko'rsatish sohasida o'zini-o'zi band qilish orqali kambag'allikni kamaytirishning muhim jihatlari	354
<i>Azimova Hulkar Egamberdiyevna</i>	
"Yashil iqtisodiyot"da ekologik barqarorlikni shakllantirish va uning sabablari	360
<i>Ochilova Nargiza Akramovna, Jonuzoqov Nurbek Berdimurodovich</i>	
Dorivor o'simliklar yetishtirishda innovatsion agrotexnologiyalarni joriy etishning iqtisodiy samarasi	364
<i>Xujakulova Nigora Rustamovna, Mardanov Akmal Shuxratovich</i>	

Mintaqa xizmat ko'rsatish sohasida o'zini-o'zi band qilish orqali kambag'allikni kamaytirishning muhim jihatlari

Azimova Hulkar Egamberdiyevna

Важные аспекты снижения бедности путем самозанятости в региональной сфере услуг

Азимова Хулкар Эгамбердиевна

Important aspects of poverty alleviation through self-employment in the regional service sector

Azimova Hulkar Egamberdievna

Received: October 6, 2025 Revised: October 9, 2025 ■ Accepted: October 11, 2025 ■ Published Online: November 1, 2025

- **Annotatsiya:** Ushbu maqolada mintaq xizmat ko'rsatish sohasida o'zini-o'zi band qilishning maqsad va vazifalari, uning ahamiyati, o'zini-o'zi band qilish orqali kambag'allikni qisqartirishning o'ziga xos jihatlari yoritilgan. Shuningdek, o'zini-o'zi band qilishning afzalliklari, aholini kambag'allikdan chiqarish bo'yicha amalga oshirilgan ishlarni hududlarda o'rganishlar natijasi bo'yicha "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturini amalga oshirishning muhim jihatlari haqida bayon etilgan. Aholi farovonligi darajasi uzluksiz o'zgarib turuvchi ko'rsatkichlari, hududlarda aholi farovonligini takomillashtirish maqsadida amalga oshirilayotgan dasturlarning monitoringini olib borish, xorij tajribasidan amaliy foydalangan holda hududlarda tadbirkorlikni rivojlantirish, yangi ish o'rinlari ochish, aholi daromadini ko'paytirish orqali ularning turmush sifati yaxshilanishi natijasida aholi farovonligini oshirish jarayonlari bo'yicha taklif va tavsiyalar keltirilgan.
- **Kalit so'zlar:** o'zini o'zi band qilish, kambag'allikni qisqartirish, xizmat ko'rsatish sohasi, mintaq, aholi farovonligi, ijtimoiy yordam, daromad, kambag'allikni qisqartirish, kambag'allik dinamikasi, soliq tizimi, iqtisodiy faollik, yakka tartibdagi tadbirkor, yangi ish o'rni.
- **Аннотация:** В статье рассматриваются цели и задачи самозанятости в региональной сфере услуг, ее значение, а также особенности сокращения бедности посредством самозанятости. По результатам исследований в регионах о проводимой работе по выводу населения из бедности описаны преимущества самозанятости, а также важные аспекты реализации программы «От бедности к достатку». Даны предложения и рекомендации по процессам повышения благосостояния населения в результате непрерывно изменяющихся показателей уровня благосостояния населения, мониторинга реализуемых в регионах программ по повышению благосостояния населения, развития предпринимательства в регионах, создания новых рабочих мест и увеличения доходов населения, тем самым повышения качества его жизни.
- **Ключевые слова:** самозанятость, сокращение бедности, отрасль предоставления услуг, регион,

общественное благосостояние, социальная помощь, прибыль, сокращение бедности, динамика бедности, налоговая система, экономическая активность, индивидуальный предприниматель, новые рабочие места.

- **Annotation:** This article explores the goals and objectives of self-employment in the regional service sector, as well as its significance in reducing poverty. It highlights the specific aspects of poverty reduction through self-employment and discusses the advantages of this form of economic activity. Furthermore, based on studies conducted across different regions, the paper analyzes the key aspects of implementing the “From Poverty to Prosperity” program. The research emphasizes that the level of public welfare is a continuously changing indicator and that effective monitoring of regional development programs aimed at improving citizens' well-being is essential. Drawing on international best practices, the article also presents recommendations for fostering entrepreneurship, creating new jobs, and increasing household income as a means of enhancing the quality of life and improving overall welfare in the regions.
- **Keywords:** self-employment, poverty reduction, service sector, region, public welfare, social assistance, income, poverty dynamics, tax system, economic activity, individual entrepreneurship, job creation.

KIRISH

O'zbekistonda rejali iqtisodiyotdan bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyotga o'tish jarayonida yangi iqtisodiy tizim, ya'ni erkin bozor munosabatlari shakllanmoqda. Bu ishlab chiqarish sohasida, taqsimot, almashuv hamda mulkiy munosabatlarda tub o'zgarishlar sodir bo'lishiga olib keldi. Eng muhimi islohotlar jarayonida bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyot mohiyatiga xos tarzda ekstensiv rivojlanish yo'lidano intensiv rivojlanish yo'liga o'tildi. Milliy iqtisodiyotning intensiv asosda rivojlanish yo'li barcha resurslardan unumli foydalanishni taqozo etadi. Iqtisodiy islohotlar jarayonida ijtimoiy ishlab chiqarishning intensiv rivojlanishi natijasida iqtisodiy o'sish sur'atlari jadallashdi, resurslardan samarali foydalanish natijasida maxsulot tannarxi pasayib, uning sifati oshdi. Intensiv rivojlanish fan va texnika taraqqiyot, ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonida yangi texnologiyalarni kiritish, xodimlarning malakasini oshirish, resurslardan unumli foydalanishning amaliy natijasidir. Ishlab chiqarishda yangi texnika va texnologiyalarni qo'llash natijasida mehnat unumdorligi oshib, iqtisodiyotda band bo'lgan aholining nisbiy qisqarishi yuz berdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi farmonlari, 2021-yil 27-martdagi PQ-5041-sonli “Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida amalga oshiriladigan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi, 2020-yil 11-avgustdagi PQ-4804-sonli “Kambag'al va ishsiz fuqarolarni tadbirkorlikka jalb qilish, ularning mehnat faolligini oshirish va kasb-hunarga o'qitishga qaratilgan hamda aholi bandligini ta'minlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-avgustdagi 504-sonli “Hududlarda “mahallabay” ishlash asosida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish va

aholining doimiy daromad manbalarini ko'paytirish orqali kambag'allikni qisqartirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-iyundagi PF-93-sonli “Kambag'allikni qisqartirishda tadbirkorlik subyektlari bilan o'zaro manfaatli hamkorlik o'rnatishga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida”gi Farmoni va shu kabi qator me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu maqolaga xizmat qiladi. Mintaqaviy iqtisodiy rivojlanish va aholi daromadlarini oshirish bugungi kunda davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy tizimida mintaqalarning o'ziga xos iqtisodiy xususiyatlari, ijtimoiy muammolari va rivojlanish potentsiali mavjud. Shuning uchun mintaqada tadbirkorlikni rivojlantirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va iqtisodiy faoliyatni kengaytirish orqali aholi turmush darajasini oshirish juda muhim ahamiyatga ega. Tadbirlar va strategiyalarni ishlab chiqishda, har bir mintaqada mavjud bo'lgan tabiiy resurslar, infratuzilma, mehnat bozori va iqtisodiy iqlimni hisobga olish zarur.

Keyingi yillarda O'zbekiston Respublikasida kambag'allikni qisqartirish, bandlikni ta'minlash va aholining farovonligini oshirish davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida alohida e'tibor qaratilmoqda. Kambag'allikni kamaytirish faqat ijtimoiy yordam dasturlari bilan emas, balki aholining iqtisodiy faolligini oshirish orqali ham amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, xizmat ko'rsatish sohasi bu jarayonda muhim o'rin egallaydi, chunki bu tarmoq katta miqdorda yangi ish o'rinlari yaratish imkoniyatiga egaligi orqali ham muhimligini ifodalaydi. O'zini-o'zi band qilish-bu shaxsning o'z mehnati orqali, ish beruvchiga bog'liq bo'lmagan holda, mustaqil daromad topish faoliyati orqali amalga oshiriladi. Yoki o'zini o'zi band qilish-bu yakka tartibdagi tadbirkor sifatida rasmiy ro'yxatdan o'tmasdan qonuniy faoliyat yuritish imkoniyatidir. Bunda minimal soliq to'lanadi, rasmiy maqom, ish staji va pensiya ta'minoti

hamda daromadni tasdiqlash imkoniyati yaratiladi¹. Avvalombor, o'zini-o'zi band qilishning afzalliklarini ko'rib chiqsak, yani qonuniy ravishda faoliyat yuritish, daromad olish va o'z jadvalini tuzish imkoniyatining mavjudligi, faqat belgilangan soliqni to'lab, jarimalardan xoli bo'lish, yillik soliqni to'lash orqali ish stajini hisoblatish va pensiyaga chiqish huquqini qo'lga kiritish, buxgalteriya hisobi yuritish va soliq deklaratsiyasini topshirish talab etilmasligi bilan ham yanada ahamiyatli hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

O'zini o'zi band qilish masalasi iqtisodchi olimlar va xalqaro tashkilotlar tomonidan keng o'rganilgan. Jahon banki va Xalqaro mehnat tashkiloti (ILO) tadqiqotlariga ko'ra, o'zini o'zi band qilish rivojlanayotgan davlatlarda bandlikning 50-60 foizini tashkil etadi. Bu ko'rsatkich iqtisodiy mustaqillik va kambag'allikni kamaytirishning muhim omili sifatida qaraladi. Mahalliy olimlardan A.Vahobov, Sh. Qurbonov, M.Xayitov kabi iqtisodchilar o'z tadqiqotlarida xizmat ko'rsatish tarmog'ining mintaqaviy iqtisodiyotdagi o'rni, bandlikni oshirishdagi roli va kambag'allikka ta'sirini yoritganlar. Prezident Shavkat Mirziyoyevning kambag'allikni qisqartirishga oid qarorlarida ham aynan o'zini o'zi band qilish mexanizmlarini kengaytirish masalasiga alohida urg'u berilgan.

TADDIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot ishida mintaqaxizmat ko'rsatish sohasida o'zini-o'zi band qilish orqali kambag'allikni qisqartirishning ahamiyatini ochib berish jarayonida induktiv va deduktiv, mantiqiy tahlil, qiyosiy tahlil, tizimlashtirish usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Kambag'allikni qisqartirish-kambag'allik dinamikasi va tarkibini tahlil qilish, oilalarni kambag'allikdan chiqarish individual rejalarining ishlab chiqilishini tashkil etish va ijrosini muvofiqlashtirish, aholini kambag'allikdan chiqarish bo'yicha amalga oshirilgan ishlarni joylarga chiqqan holda o'rganish hamda natijasi bo'yicha "Kambag'allikdan farovonlik sari"² dasturini amalga oshirish masalalari yanada takomillashtirilmoqda. Mamlakatimizda so'nggi yillarda bu yo'nalishning kengayishi natijasida minglab fuqarolar doimiy daromad manbaiga ega bo'ldilar. O'zini o'zi band

qilgan shaxslar iqtisodiyotning turli sohalarida faoliyat yuritib, nafaqat o'z oilalarini, balki mamlakat iqtisodiyotini ham rivojlantirishga hissa qo'shmoqdalar. Ular ko'pincha kichik biznes va xizmat ko'rsatish sohalarida faoliyat yuritishi natijasida ish o'rinlarini yaratish, innovatsiyalarni joriy etish va jamoatchilik ehtiyojlarini qondirishda muhim rol o'ynaydi. Xizmat ko'rsatish sohasida o'zini o'zi band qilish kambag'allikni kamaytirishning eng samarali vositalaridan biri hisoblanadi.

Bu jarayon aholining daromadini oshirish bilan birga, iqtisodiyotda barqaror o'sishni ham ta'minlaydi. Davlat tomonidan yaratilayotgan imtiyozli kredit va soliq yengilliklari, o'zini o'zi band qilgan shaxslarning ijtimoiy himoyasini mustahkamlash kambag'allikni qisqartirish siyosatida muhim rol o'ynamoqda.

Kelgusida xizmat sohasida o'zini o'zi band qilishni kengaytirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- raqamli xizmat turlarini qo'llab-quvvatlash va onlayn platformalarni rivojlantirish;
- mintaqaviy darajada biznesni boshlash uchun infratuzilmani yaxshilash;
- aholi o'rtasida moliyaviy savodxonlikni oshirish;
- xizmat ko'rsatish sohasida eksportbop xizmat turlarini yaratish.

Shu bilan bir qatorda davlat tomonidan "Har bir oila-tadbirkor",

Yoshlar daftari", "Ayollar daftari" va "Temir daftar" kabi tashabbuslar orqali o'zini o'zi band qilgan fuqarolarga imtiyozli kreditlar, grantlar hamda soliq yengilliklari berilmoqda. Bu esa nafaqat bandlikni oshiradi, balki kambag'allik darajasining pasayishiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Xizmat ko'rsatish sohasi O'zbekiston iqtisodiyotida muhim o'rin tutadi. 2025-yil yakuniga qadar kambag'allikni qisqartirish 6% foizga tushirilishi haqida, shuningdek 2025-yilda 1 million nafar aholini kambag'allikdan chiqarish davlat ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining hamda barcha darajadagi davlat organlari va tashkilotlarning birinchi darajali vazifasi etib belgilanganligi muhim ustuvor vazifadir. Bu borada xizmat ko'rsatishning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 38% foizdan 47% foizgacha oshganligi, bandlikning esa qariyb 40% foizi aynan ushbu sohaga to'g'ri kelganligi yaratilgan imkoniyatlar, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash natijasida yuzaga kelgan. Bu esa xizmat ko'rsatish sektori orqali kambag'allikni kamaytirishning samarali yo'li mavjudligini ko'rsatadi.

1 Vahobov A., Qurbonov Sh. "Hududiy iqtisodiy rivojlanish va bandlik siyosati." – Toshkent, 2022.

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-sentyabrdagi "Kambag'allikni qisqartirish va aholi turmush faravonligini oshirish borasidagi chora-tadbirlarni yangi bosqichga olib chiqish to'g'risida"gi PF-143-son Farmoni

1-jadval

Qashqadaryo viloyatida aholini daromadli mehnat bilan ta'minlashning yig'ma maqsadli ko'rsatkichlari [5]

shu jumladan, sohalar kesimida:

T/r	Tuman (shahar) nomi	Aholi bandligini ta'minlash	Investitsiya loyihalarini ishga tushirish hisobiga	Tadbirkorlikni rivojlantirish hisobiga	shundan:		Qishloq xo'jaligi sohasida	Qurilish sohasida
					aholini doimiy ishga joylashtirish	aholini tadbirkorlikka jalb qilish		
	JAMI	600 000	14 250	282 076	130 383	151 693	292 639	11 035
1.	Qarshi shahri	27 533	2 283	22 801	10 545	12 256	0	2 449
2.	Shahrisabz shahri	11 766	1 076	9 991	4 710	5 281	65	634
3.	G'uzor tumani	39 399	516	17 832	8 243	9 589	20 559	492
4.	Dehqonobod tumani	15 170	531	7 815	3 605	4 210	6 568	256
5.	Kasbi tumani	46 823	746	20 749	9 594	11 155	24 935	393
6.	Kitob tumani	35 703	780	17 670	8 168	9 502	16 766	487
7.	Koson tumani	63 400	843	27 597	12 764	14 833	33 601	1 359
8.	Ko'kdala tumani	37 083	923	16 406	7 476	8 930	18 687	1 067
9.	Qamashi tumani	39 608	743	18 059	8 348	9 711	20 332	474
10.	Qarshi tumani	45 766	936	20 190	9 335	10 855	24 148	492
11.	Mirishkor tumani	40 448	904	16 367	7 565	8 802	22 904	273
12.	Muborak tumani	38 877	777	15 403	7 119	8 284	22 472	225
13.	Nishon tumani	40 092	294	17 625	8 147	9 478	21 920	253
14.	Chiroqchi tumani	37 635	1 173	17 452	8 067	9 385	18 450	560
15.	Shahrisabz tumani	37 589	594	17 188	7 945	9 243	19 302	505
16.	Yakkabog' tumani	43 108	1 131	18 931	8 752	10 179	21 930	1 116

Xususan, 2020-2024-yillar davomida o'zini o'zi band qilgan fuqarolar soni 1,3 milliondan 3,1 million kishiga yetgan. Bu esa 2020 yildan 2024 yilgacha bo'lgan vaqt mobaynida 2,4 baravar o'sishijobiy natijadir [3]. Ayniqsa, ularning 60 foizdan ortig'i xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat yuritishi natijasida tikuvchilik, sataroshlik, avtomobil ta'miri, qurilish xizmatlari, axborot texnologiyalari, onlayn savdo va reklama dizayni bo'yicha mintaqalar kesimida tahlil qilganimizda Toshkent shahri, Farg'ona va Samarqand viloyatlari yetakchilik qilmoqda. Qashqadaryo va Jizzax viloyatlarida esa xizmat sohasi rivojlanish sur'atlari nisbatan past, chunki bu hududlarda infratuzilma va moliyaviy imkoniyatlar cheklanganligi bilan ifodalanadi.

Tahlil natijalariga ko'ra, o'zini o'zi band qilganlar orasida 35 yoshgacha bo'lgan yoshlar ulushi 58 foizni tashkil etadi (1-jadval). Bu esa yoshlarning iqtisodiy faolligi oshayotganini ko'rsatadi [4].

Yuqoridagi jadval ma'lumotlariga asoslanib aytish mumkinki, Qashqadaryo viloyatida aholini daromadli mehnat bilan ta'minlashning yig'ma maqsadli ko'rsatkichlari tumanlar kesimida shakllantirilgan bo'lib, unda aholi bandligini ta'minlash sohalar kesimida, investitsiya loyihalarini yo'lga qo'yish hisobiga, tadbirkorlikni rivojlantirish hisobiga, aholini doimiy ishga jalb etish hisobiga, qishloq xo'jaligi sohasida, qurilish sohasida bo'lib, asosiy maqsad ishsizlikni kamaytirish, bandlikni ta'minlash hamda hududlarda aholi turmush sifatini yaxshilash nazarda tutilgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Aholining turmush darajasi va farovonligini oshirishda xizmat ko'rsatish sohasi muhim ahamiyat kasb etadi. Ammo milliy iqtisodiyotda xizmat ko'rsatish sohasi katta ahamiyatga ega ekanligiga qaramasdan, sohani va uning alohida tarmoqlarini rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlari iqtisodiy adabiyotlarda o'zining to'liq ifodasini topmagan.

Iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda YaIM tarkibida xizmat ko'rsatish sohasining ulushi 60-80 foizni, iqtisodiyotda band bo'lganlarning 70 foizini, aholi iste'mol xarajatlari tarkibida esa 50-60 foizni tashkil etadi. Shundan kelib chiqib, ushbu sohani chuqur tadqiq qilib, uni rivojlantirish asosida aholi bandligini oshirish bo'yicha tegishli tavsiyalarni ishlab chiqish zarurligi ilmiy-nazariy jihatdan asoslandi.

Moddiy ishlab chiqarishda mehnat unumdorligining oshishi, iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar, demografik va boshqa omillarning kuchli ta'siri ostida bandlik muammolarining keskinlashuvi natijasida xizmat ko'rsatish sohasi oldida turgan vazifalar aniqlandi va batafsil asoslab berildi.

Ishsizlikning kelib chiqish sabablari chuqur tahlil qilinib, uni bartaraf etishda rivojlangan mamlakatlar tajribasi, mahalliy

olimlarimizning iqtisodiy qarashlari o'rganildi, ularga tadqiqotchining munosabati mantiqiy dalillar yordamida ilmiy jihatdan asoslab berildi.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga asoslangan holda xulosa qilib aytganda, o'zini o'zi band qilish nafaqat bandlikni ta'minlaydi, balki kambag'allikni kamaytirish va iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashning strategik yo'nalishidir. O'zini o'zi band qilgan shaxslar sonining ortishi O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini va aholi farovonligini oshirishga qaratilgan muhim omil hisoblanadi. Kelajakda bu tendensiyaning davom etishi uchun hukumat va jamoatchilik tomonidan qo'llab-quvvatlovchi chora-tadbirlar amalga oshirilishini yanada kengaytirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bu esa nafaqat yangi ish o'rinlarini yaratadi, balki mamlakat iqtisodiyotining diversifikatsiyasini ham ta'minlaydi. Bu borada asosiy muammolar esa quyidagicha:

Birinchidan moliyaviy resurslarga yetarli kirish imkoniyatining yo'qligi;

Ikkinchidan kasbiy malaka yetishmasligi;

Uchunchidan xizmat sifati va marketing madaniyatining pastligi;

To'rtinchidan raqamli texnologiyalarni qo'llashdagi yetishmovchilik.

Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi yo'nalishlar taklif qilinadi:

-Mikrokredit va grant dasturlarini kengaytirish;

-Kasbiy tayyorlov va qayta tayyorlash markazlarini tashkil etish;

-Xizmatlar eksportini rivojlantirish uchun raqamli platformalar yaratish;

-Ayollar va yoshlar uchun maxsus biznes-inkubatorlarni tashkil etish.

Muallif haqida / Сведения об авторе / Author details

1. Azimova Hulkan Egamberdiyevna -Qarshi davlat texnika universiteti "Buxgalteriya hisobi va audit" kafedrasida katta o'qituvchisi / Азимова Хулкар Эгамбердиевна - старший преподаватель кафедры «Бухгалтерский учет и аудит» Каршинского государственного технического университета / Azimova Hulkan Egamberdiyevna- Senior Lecturer, Department of "Accounting and Audit", Karshi State Technical University

► azimovakhulkar@gmail.com

■ 0009-0006-1235-5234

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Vahobov A., Qurbonov Sh. "Hududiy iqtisodiy rivojlanish va bandlik siyosati." – Toshkent, 2022.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-sentyabrdagi "Kambag'allikni qisqartirish va aholi

turmush faravonligini oshirish borasidagi chora-tadbirlarni yangi bosqichga olib chiqish to'g'risida"gi PF-143-son Farmoni

3. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari, 2024-yil.
4. World Bank. "Self-employment and Small Business Development in Central Asia." Washington D.C., 2021.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik faoliyati va o'zini o'zi band qilishni davlat tomonidan tartibga solishni soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" Qarori. PQ-4742, 08.06.2020
6. O'zbekiston Respublikasining "Aholi bandligi to'g'risida"gi Qonuni.O'RQ-642, 20.10.2020
7. Vazirlar Mahkamasining "O'zini o'zi band qilgan shaxs sifatida faoliyatni amalga oshirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi Qarori. 23.12.2020